

**NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/05.05.2023.Fil.163.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

**RAXIMOVA UMIDA SOLIYEVNA**

**ENN ENRAYT ASARLARIDA ONA OBRAZI POETIKASI**

**10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya  
AVTOREFERATI**

**Namangan – 2024**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Content of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) in  
Philological Sciences**

**Raximova Umida Soliyevna**

Enn Enrayt asarlarida ona obrazi poetikasi.....3

**Рахимова Умида Солиевна**

Поэтика образа матери в произведениях Энн Энрайт.....23

**Rakhimova Umida Solievna**

Poetics of the image of mother in Anne Enright’s novels.....45

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....49

**NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/05.05.2023.Fil.163.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

**RAXIMOVA UMIDA SOLIYEVNA**

**ENN ENRAYT ASARLARIDA ONA OBRAZI POETIKASI**

**10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya  
AVTOREFERATI**

**Namangan – 2024**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Fil2899 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) ilmiy kengash veb-sahifasi ([www.namsifl.uz](http://www.namsifl.uz)) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portali ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) manzillarida joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Xaliyeva Gulnoz Iskandarovna,**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

**Rasmiy opponentlar:**

**Ziyayev Avazjon Ixtiyorovich,**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor,

**Nasriddinov Dilshod A'zamkulovich,**  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
dotsent.

**Yetakchi tashkilot:**

**Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat chet tillari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/05.05.2023.Fil.163.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: Namangan viloyati, To'raqo'rg'on tumani, "Yangiobod" MFY, Saodat ko'chasi, 28-uy. Tel.: +998 (69) 442-11-67, faks: (+99899-9778883, e-mail: [info@namsifl.uz](mailto:info@namsifl.uz) / [namchi-1@exat.uz](mailto:namchi-1@exat.uz) / [namdchti@edu.uz](mailto:namdchti@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat chet tillari instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_...raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: Namanganviloyati, To'raqo'rg'on tumani, "Yangiobod" MFY, Saodat ko'chasi, 28-uy. Tel.: +998 (69) 442-11-67, faks: (+99899-9778883, e-mail: [info@namsifl.uz](mailto:info@namsifl.uz) / [namchi-1@exat.uz](mailto:namchi-1@exat.uz) / [namdchti@edu.uz](mailto:namdchti@edu.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_kuni tarqatildi.  
(2024-yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**Dosbayeva Nargiza Turg'unpo'latovna,**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
raisi, filol. f. d, professor,

**Umrzaqov Islomjon Isroilovich,**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD), dotsent,

**Misirov Sohijon Abdupattayevich,**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, p. f. n.,  
dotsent.

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyotida ona obrazi tadqiqi va talqini chuqur ma'naviy va axloqiy ildizlarga ega bo'lib, adabiy-estetik jarayon sifatida doim ijodkorlar va olimlar diqqat e'tiborida bo'lgan. Zamonaviy irland adibasi Enn Enrayt ijodida milliy o'zlikni anglash, jamiyat taraqqiyoti, oilaviy munosabatlar, oila va jamiyatda ona maqomi kabi dolzarb va murakkab muammolar o'z ifodasini topgan. Yozuvchi o'z asarlarida onalik maqomi muammolari va vazifalariga e'tibor qaratib, qahramonlarining noan'anaviy va yangi qirralarini kashf eta oldi. Enn Enrayt asarlari o'zbek kitobxonlariga yetarli darajada ma'lum emas, shuning uchun adibaning hayot yo'li va ijodiy merosini o'rganish zamonaviy irland adabiyotining shakllanishi, tadriji hamda bosqichlari haqida ilmiy tasavvurlarni boyitishga imkon beradi.

Dunyo adabiyotida azaldan ona siymosiga alohida e'tibor qaratilgan va barcha xalqlar orasida ulug'lanib kelingan. Ona timsoli, uning individum sifatida ijtimoiy maqomini ochib berish muammosi hech qachon o'z dolzarbligini yo'qotmaydi. Jahon adabiyotshunosligida tasvirlangan ona timsoli orqali xalqning urf-odatlarini, fazilatlarini, ularning dunyosini muayyan darajada namoyon etadi. Zamonaviy irland adabiyotida Enn Enrayt o'z g'oyaviy yo'nalishiga ega ijodkor sifatida e'tirofqa loyiq. U Irlandiya badiiy kengashi tomonidan adabiy asarlari uchun nufuzli bo'lgan ayollar mukofotini (*"Women's Prize for Fiction"*) qo'lga kiritgan. Adiba romanlari syujetidagi xarakterlar va voqealar mantiqi, falsafiy mushohadalar, nasrda chuqur lirizm va romantik bo'yoqdorlikni ifodalash orqali bunday e'tirofqa haqli ekanligini isbotladi. Insonning sirli, tushunish mushkul bo'lgan jihatlarini yozuvchi turli rakurslarda tasvirlaydi, uning qahramonlari ruhiy kolliziyalar, ayol va jamiyat, ayol va oilaviy muhit, onaning orzusi, armoni, pushaymoni hamda umidlari oralig'idagi botiniy ziddiyatlar va ulardan batamom qutulish yoki ular bilan yuzlashish uchun o'zlarining ichki "men"larini topishga intilishadi.

O'zbek adabiyotida muqaddas va mo'tabar ona siymosi sharqona tamoyillar asosida gavdalantiriladi. Jahon va o'zbek xalqlari badiiy adabiyotida ona obrazini yaratishda mushtarak mezonlar mavjud. Ammo har bir xalq va millatga mansub ona siymosi o'z olami, tabiati, ichki va tashqi dunyosi bilan farqlanib turadi. Muallif ijodiy niyati asosida ona obrazining turli qirralarini milliy mentalitet nuqtai nazaridan badiiy talqin etish zamonaviy adabiyotshunoslikda o'rganilishi zarur muammolar sirasiga kiradi. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Xalqimiz azal-azaldan Ona siymosini, Ayol zotini Yaratganning ulug' ne'mati, tengsiz mo'jizasi, deb biladi, uni hamisha ardoqlab-asrab yashaydi. Ma'lumki, har qanday jamiyat va davlatning qay darajada xalqparvar hamda adolatli ekani uning xotin-qizlarga bo'lgan munosabati va g'amxo'rliqi bilan belgilanadi"<sup>1</sup>. Ona siymosini turli xalqlar badiiy adabiyotida aks ettirishdagi o'ziga xosliklarni tadqiq etish, ijodkor uslubi va badiiy mahoratining tahlili asosida milliy-madaniy xususiyatlarni ochish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi/<https://www.trt.net.tr/uzbek/madaniyat-va-san-at/2022/03/09/1234567890-1792319>

Ushbu tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentyabrdagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish to‘g‘risida”gi PQ-3271-son hamda 2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5117-son qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi «Ta’lim muassasalarida chet tillarini o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 610-son, 2018-yil 18-maydagi «Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o‘zbek tiliga hamda o‘zbek adabiyoti durdonalarini chet tillariga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 376-son qarorlari va qator boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy innovasion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Enn Enraytning badiiy mahorati xorij adabiyotshunosligida ma’lum darajada o‘rganilgan. Jumladan, M.Kennedi, J.Shumeyker, M.O‘Neyl, Sh.Xedvig, M.A.Barros-Del Rio, K.M.Euvrosino, B.Brendi, E.A.Fyuller, S.Mikovski, L.Sidora, M.N.Sayfulina, L.P.Xammel<sup>2</sup> kabi tadqiqotchilarning ilmiy asarlarida yozuvchi ijodining ayrim qirralari o‘rganilgan bo‘lsa-da, ona obrazi poetikasi maxsus tadqiq etilmagan. Tadqiqotchi M.Kennedi adiba asarlarida tasvirlangan irland ayollarining o‘tmish va hozirgi voqelikdagi yashash tarzi va sharoitlari haqida fikr yuritib, ko‘proq ikki tomonlama tuyg‘ularning paydo bo‘lish muammosining psixologik jihatini tahlil qilgan. J.Shumeyker yozuvchining roman va hikoyalaridagi o‘xshash syujet va motivlari,

---

<sup>2</sup> Michelle Kennedy. Freeing the Smothered (M)other: The Refocalisation of the Reluctant Mother in Modern Irish Society as Evinced Through the Works of Anne Enright. *Otherness: Essays and Studies* 3.2. – P. 1-23 // Shumaker, Jeanette Roberts. *Uncanny Doubles: the Fiction of Anne Enright*. *New Hibernia Review* 9.3, 2005. –P. 107-22 // O’Neill, Margaret. A Bionian Reading of the Mother in Anne Enright’s *The Green Road*. *Studies in Gender and Sexuality*, – Routledge, vol. 17, no. 3, 2016. –P. 181-190 // Schwall, Hedwig. “Relationships with ‘the Real’ in the Work of Anne Enright”. Anne Enright. Eds. Claire Bracken and Susan Cahill. –Dublin: Irish Academic Press, 2011. – P. 205-211 // Barros-Del Río, Maria Amor. Fragmentation and Vulnerability in Anne Enright’s *The Green Road*, 2015: Collateral Casualties of the Celtic Tiger in Ireland. *International Journal of English Studies*, vol. 18, no. 1, 2018. –P.35–51 // Eufrausino, Caroline *The Spiraling Aesthetics in Anne Enright’s Work*. –Tese de Doutorado. Sao Paulo, 2017. – P.22-42 p. (204 p.) // Byrd, Brandi. *Entangled in Story: Narrative Ethics of Memory in Contemporary Irish Fiction // Anne Enright’s The Forgotten Waltz*. Dis., for PhD. – ProQuest LLC, – 2017. –237 p. // Elizabeth, A Fuller. ‘New Femininities’ Fiction. *Flirting with the Boundary: The Ironic Voices of Enright, Heller, and Kennedy*. Anne Enright’s *Ironic Voice: Hovering on the Border Between Body and Mind*. – English Studies University of Stirling, – June 2011. –92-106 p. // Sylvie Mikowski. *Gothic and Noir: The Genres of the Irish Contemporary Fiction of Containment*. *Études irlandaises*. Vol. 42, No 2, 2017. – Varia. Presses universitaires de Caen. – 93-104 p. // Laura Sydora. *Everyone wants a bit of me: Historicizing Motherhood in Anne Enright’s The Gathering*. *Women’s Studies*, 44:, –Taylor & Francis Group, LLC. Publisher: Routledge, 2015. –239-263 p. // Сайфуллина М.Н. Творчество Энн Энрайт в контексте ирландской литературной традиции: Дисс... канд. филол.наук. – Казань, 2019. –156 с. // Lorna Page Hummel. *Embodied Experiences of Caregiving: Literature as a Lens for the Health Humanities*. *Unhealthy Ardeevin: Mothers & Their Space in the Home in Anne Enright’s The Green Road*. Thesis. – Omaha, NE, –2019. – 36-60 p.

M.O'Neyl, K.Euvrosino patriarxal jamiyatda irland ayollarining ichki olami, ruhiyatiga ta'sir ko'rsatgan ijtimoiy-madaniy omillar, Sh.Xedvig oilaviy munosabatlarni siyosiy masalalar bilan bog'liqlikda ochib bergan. Rus tadqiqotchisi M.N.Sayfulina Enn Enrayt ijodidagi irland ayoli shaxsiyati, tarixiy ayol obrazi xarakteri, oila, sevgi, gender munosabatlarini o'tmish va hozirgi davrning murakkab tarixiy fonida tahlilga tortadi, hikoyalaridagi mifologema, mifonim, mavzu, motiv kabilarni o'rganadi.

O'zbek adabiyotshunosligida O.I.Duysenbaev ona obrazi poetikasini O'tkir Hoshimov asarlari misolida, aynan o'zbekona milliylik asosida yoritib bergan<sup>3</sup>.

Enn Enrayt garchi so'nggi yigirma yil ichida Irlandiya adabiy doiralarida faol va ko'pgina mukofotlarga sazovor bo'lsa ham, uning ijodi keng ko'lamda ochib berilmagan. Adibaning asarlari qirqdan ortiq tillarga tarjima qilingan, ammo hali hanuz birorta asari o'zbek tiliga o'girilmagan. Shuningdek, Enn Enrayt asarlarida ona obrazi poetikasi masalasi o'zbek adabiyotshunosligida tadqiq qilinmagan. Rus olimi V.M.Jirmunskiyning fikricha, **poetika asarni san'at darajasida o'rganadigan fandır**. Shu jihatdan olimning «adabiyot haqidagi fan poetika belgisi ostida rivojlanadi»<sup>4</sup> degan fikri hozir ham dolzarbligini yo'qotmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Xorijiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslikning dolzarb muammolari" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Enn Enrayt asarlarida ona obrazining o'ziga xos jihatlarini, yozuvchining obraz yaratishdagi mahoratini poetika mezonlari asosida tahlil va tadqiq etishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

–Irland adabiyotida Enn Enraytning ona obrazini badiiy gavdalantirishdagi mahorati, asarlarining tili va uslubidagi individual jihatlarini aniqlash;

–irland onasi timsolini yaratishda yozuvchi ijodiy fantaziyasining kengligi, ona ruhiyatining ma'naviy, ijtimoiy-psixologik xususiyatlarining o'ziga xosligini yoritish orqali irland adabiyoti uchun mutlaqo yangi hodisa bo'lgan, noan'anaviy ona timsolini badiiy mezonlar orqali ochib berish;

–yozuvchining "The Pleasure of Eliza Lynch" romanidagi tarixiy shaxs prototipini yaratish orqali qahramonning onalik tuyg'ularining mushtarak ifodalanishi, ayolning jamiyatdagi maqomi, ayol – oila – davlat triadasini izohlash;

–adiba roman va hikoyalarida mohirona qo'llangan badiiy tasviriy vositalar, badiiy detallar, ayol personajlarning turli yoshdagi ichki va tashqi portretining tahlili orqali yozuvchining o'ziga xos uslubini qiyosiy-tipologik jihatdan yoritish.

**Tadqiqotning obykti** sifatida Enn Enraytning "What Are You Like?" (Kimsiz?), "Making Babies: Stumbling into Motherhood" ("Farzand tug'ish-onalikka yuz tutish"), "The Gathering" (Yig'ilish), "The Green Road" (Yashil yo'l), "The Pleasure of Eliza Lynch" (Eliza Linchning ko'ngilxushligi) romanlari,

<sup>3</sup> Дуйсенбаев О.И. Ўткир Ҳошимов ижодида она образи. – Дис. Тошкент. – 2011. Б.144.

<sup>4</sup> Жирмунский В.М. Задачи поэтики / Теория литературы. Поэтика. Стилистика. – Л., 1977. – С.15; Историческая поэтика: Итоги и перспективы изучения. – М., 1986. – С.12.

shuningdek, “Taking Pictures” (Suratga olish) va “The Portable Virgin” (Bejirim Bokira Mariya) hikoyalar to‘plamlaridagi “The House of the Architect’s Love Story” (Me‘mor muhabbat hikoyasi uyi), “Shaft” (Quduq) hikoyalari tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** Enn Enrayt asarlaridagi ona obrazi poetikasini badiiylik mezonlari asosida ochib berish tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy-tarixiy, tipologik, biografik, psixologik usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

–Enn Enrayt asarlaridagi ona obrazi poetikasi ayol shaxsiyati, avlodlar davomiyligi, urf-odatlar va an’analar ulug‘vorligi, milliy o‘zlikni anglash, irland ayolining noan’anaviy xarakter dinamikasi kabi masalalar doirasida asoslangan;

–yozuvchining ona obrazini badiiy gavdalantirishdagi mahorati, asarlarining tili va uslubidagi individual jihatlar: gumanizm, chuqur mushohada, umumlashtirish va tipiklashtirish, syujet qurilishi va obrazlar tizimini yaratishdagi mahorat, muallif g‘oyasining mantiqiyliigi va ijodiy fantaziyasining kengligi, badiiy detallarning, qahramonlar ichki dunyosini mahorat bilan ochib berilishi, asar tilining boyligi va rang-barangligi kabi badiiylik mezonlari asosida isbotlangan;

–nafaqat irland adabiyoti, balki inglizabon adabiyotlar uchun mutlaqo yangi hodisa bo‘lgan, noan’anaviy ona timsolini yaratishdagi yozuvchining badiiy mahorati dissertant tarjimasidagi yorqin misollarda dalillangan; “The Pleasure of Eliza Lynch” romanidagi tarixiy shaxs prototipini yaratish orqali ayolning jamiyatdagi maqomi, ruhiyati, irqiy va etnik o‘ziga xosligi ayol – oila – davlat triadasi asosida ochib berilgan;

–Enn Enrayt hikoyalarda ona obrazi estetikasi ramziy obrazlar vositasida tasvirlab berilgani hamda adiba ijodida sadoqatli, oilaparvar, sabr-matnatli yoki bevafo, xiyonatkor, zinokor ayollarning metaforik tasvirini yaratishda motiv va ramzlarning badiiy ahamiyati dalillangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

–zamonaviy irland yozuvchisi Enn Enrayt asarlarini o‘rganish, uning roman va hikoyalari misolida ona obrazining umumlashma va tipik xususiyatlarini tadqiq etish imkoniyatlari kengaytirilgan;

–roman va hikoyalarda ona obrazini badiiy mezonlar asosida ochib berish va badiiy tarjimalarda milliy-madaniy xususiyatlarni yoritishda muqobil variantlarni tanlash imkoniyatlari yaratilgan.

Mazkur dissertatsiyada erishilgan natijalar va xulosalardan obraz poetikasini batafsil o‘rganishda, shuningdek, tili o‘rganilayotgan mamlakatlar adabiyoti va qiyosiy adabiyotshunoslikka oid darslik va o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar yaratishda, Enn Enrayt hayoti va ijodi bilan bog‘liq tadqiqotlarni bajarishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** respublika hamda xorij olimlarining ilmiy-nazariy mulohazalariga asoslanganligi, ingliz tilidagi asl badiiy matn va adabiyotshunoslik metodologiyasi asosida tahlil, talqin va tadqiq qilinganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijasida olingan ilmiy-nazariy xulosalar shu yo‘nalishdagi yangi tadqiqotlarga keng yo‘l ochadi, ta‘lim va tarbiya jarayonini takomillashtirishda hissa bo‘lib qo‘shiladi.

Dissertatsiyaning xulosalaridan jahon adabiyoti, qiyosiy adabiyotshunoslik, adabiy aloqalar, tarjimashunoslik, badiiy tahlil poetikasi fanlarini va maxsus kurslarni o‘qitishda, fundamental va amaliy loyihalar tayyorlashda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Enn Enrayt asarlarida ona obrazi va uning ijtimoiy-estetik talqini bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

–Enn Enrayt asarlaridagi ona obrazi poetikasi ayol shaxsiyati, avlodlar davomiyligi, urf-odatlar va an‘analar ulug‘vorligi, milliy o‘zlikni anglash, irland ayolining noan‘anaviy xarakter dinamikasi kabi masalalarga oid xulosalardan O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi “Jahon bolalar adabiyoti” kitobini nashr etishda foydalanilgan. (O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi 2023-yil 3-martdagi 01-03/ 348-son ma‘lumotnomasi). Natijada Enn Enrayt asarlaridagi g‘oyaviy mantiqiylik hamda fantaziyasining kengligi borasidagi tadqiqotchining xulosalari yosh yozuvchilar uchun nazariy manba sifatida xizmat qilgan;

–nafaqat irland adabiyoti, balki inglizabon adabiyotlar uchun mutlaqo yangi hodisa bo‘lgan, noan‘anaviy ona timsolini yaratishdagi yozuvchining badiiy mahorati dissertant tarjimasidagi yorqin misollarda dalillangan; “The Pleasure of Eliza Lynch” romanidagi tarixiy shaxs prototipini yaratish orqali ayolning jamiyatdagi maqomi, ruhiyati, irqiy va etnik o‘ziga xosligi ayol – oila – davlat triadasi asosida ochib berilganiga oid xulosalari Yevropa Ittifoqining Erasmus K102-raqamli proekti «Translation into English and Creating Electronic Fund of Turkic Nations Folklore» nomli fundamental loyihada (2012–2016) foydalanilgan (Istanbul Tijorat universiteti rektorining 2023-yil 8-fevraldagi ma‘lumotnomasi). Natijada Enn Enraytning obraz yaratish mahoratiga doir ilmiy-nazariy qarashlar loyiha mazmun-mohiyatini boyitgan;

–Enn Enrayt hikoyalarida ona obrazi estetikasi ramziy obrazlar vositasida tasvirlab berilgani hamda adiba ijodida sadoqatli, oilaparvar, sabr-matnatli yoki bevafo, xiyonatkor, zinokor ayollarning metaforik tasvirini yaratishda motiv va ramzlarning badiiy ahamiyatiga oid xulosalardan Xorazm viloyat teleradiokompaniyasining “Assalom, Xorazm”, “Adabiy muhit”, “Ma‘rifatnoma”, “Najot bilimda” ko‘rsatuv va eshittirishlarida foydalanilgan (Xorazm viloyat teleradiokompaniyasi “Assalom, Xorazm” telekanali davlat muassasasining 2023-yil 12-aprel 358-son ma‘lumotnomasi). Natijada tomoshabinlarning irland adibasi ijodiy merosi, asarlarida ilgari surilgan umuminsoniy g‘oyalar bo‘yicha tasavvurlari kengaytirilgan;

–yozuvchining ona obrazini badiiy gavdalantirishdagi mahorati, asarlarining tili va uslubidagi individual jihatlar: gumanizm, chuqur mushohada, umumlashtirish va tipiklashtirish, syujet qurilishi va obrazlar tizimini yaratishdagi mahorat, muallif g‘oyasining mantiqiyliigi va ijodiy fantaziyasining kengligi, badiiy detallarning, qahramonlar ichki dunyosini mahorat bilan ochib berilishi, asar tilining boyligi va rang-barangligi kabi badiiylik mezonlari asosida olingan xulosalardan O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasida bajarilishi mo‘ljallangan

FZ-202002146 “Markaziy Osiyo mutafakkirlari asarlari asosida buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi ma’rifiy, tarbiyaviy kurash asoslarini o‘zida jamlagan multimedia dasturi hamda mobil ilovasini yaratish” amaliy loyihasi doirasida foydalanilgan. (O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi 2023-yil 24-martdagi 02-435-son ma’lumotnomasi). Natijada sadoqatli, oilaparvar, sabr-matonatli ayollar obrazini yaratishning jamiyat uchun amaliy foydasiga doir materiallar bilan boyitilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya ishi natijalari 7 ta, jumladan, 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.**

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta ilmiy maqola; 5 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda e’lon qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tarkib topgan bo‘lib, jami 149 betdan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganganlik darajasi yoritilgan, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ko‘rsatib o‘tilgan, ishning maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Jahon adabiyotshunosligida Enn Enrayt ijodi**” deb nomlangan birinchi bobida dunyo adabiyotshunosligida adibaning o‘rni va roli yoritilgan. “Enn Enrayt asarlarining ingliz adabiyotshunosligidagi tadqiqi” faslida irland va ingliz adabiyotida ayol mavzularini keng yoritgan Edna O‘Brayen, Jenifer Jonston, Eylis Ni Duibne, Kolm Toibin, Jon Banville, Roddi Doyl va Sebastian Barri kabi yozuvchilar bilan bir qatorda Enn Enrayt XX asr nafaqat Irland adabiyotining, balki ingliz adabiyotining muhim vakili sifatida tan olinganligi asoslangan.

Irland ingliz yozuvchisi Enn Enrayt 1962-yilda Dublinda tug‘ilgan, bugungi kunda iste’dodli yozuvchilardan biri sifatida ko‘pchilik tanqidchilar tomonidan tan olingan va e’tirofga sazovor bo‘lgan. U ko‘plab mukofotlarni, jumladan, “*The Gathering*” (Yig‘ilish) romani uchun “*Booker Prize*”ni qo‘lga kiritgan. Uning asarlari turli janrlarda yozilgan: hozirgi kunga qadar adiba yettita roman (“*The Wig My Father Wore*”, 1995, “*What Are You Like?*”, 2000, “*The Pleasure of Eliza Lynch*”, 2002, “*The Gathering*”, 2007, “*The Forgotten Waltz*”, 2011, “*The Green Road*”, 2015 va “*Actress*”, 2020); bitta esselar to‘plami (“*Making Babies: Stumbling into Motherhood*”, 2004); uchta qisqa hikoyalar to‘plamlari (“*The*

Portable Virgin”, 1991, “Taking Pictures”, 2008 va “Yesterday’s Weather”, 2009)ni nashr ettirgan.

Kuzatishlar adiba ijodining turli qirralari haqida K.Dell Amiko, K.Evins, A.Fogati, S.Gardam, K.S.MakGoven, Elk D’Xoker, S.M.Nestor, M.Esteves-Saa, X.Ingman, G.Miney, K.Moloney, E.A.Fyuller, M.Smis, K.A.Makkarsi, M.M.Xarper, A.K.Shneyder<sup>5</sup> va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy ishlari mavjudligini ko‘rsatdi, shuning bilan birga, Enn Enrayt sezilarli darajada e‘tiborga tushgan adiba ekanini isbotladi. Shvall Xedvig Irlandiya tarixining o‘ziga xos davrida onalik qonuniyatini boshqa misollar orqali ko‘rsatish E.Enrayt ijodining ijtimoiy xususiyatini ifodalaydi va shuningdek, nima uchun “xususiylik – ijtimoiy-siyosiy omil” ekanligini tushuntiradi. Olim yozuvchi asarlarining ushbu xususiyatini o‘rganib chiqadi va quyidagilarni ta’kidlaydi: “Oilaviy masalalar ijtimoiy-siyosiy muammolar sirasiga kiradi. U falsafa va psixoanalizdan ilhomlanib, unga yangi dunyolarni yaratishga imkon bergan yozishning yangicha usulini tanlagan”<sup>6</sup>. Uning ijtimoiy-siyosiy mulohazalaridan aytish mumkinki, Enrayt – o‘z davrining ijtimoiy, siyosiy va madaniy xususiyatlarini asarlarida haqiqatga sodiqlik mezoni asosida tasvirlay olgan yozuvchi.

K.Moloney Enraytni 1990-yillarda Irlandiyada paydo bo‘lgan yozuvchi “qissalari va romanlari uchun tanqidchilikning jiddiy e‘tibori va adabiy maqtoviga sazovor bo‘lgan, shuningdek, Enraytning ijodi an’anaviy e‘tiqod tizimlari va bilish nazariyasiga muammo tug‘diradi; u jurnalistika, tarix va badiiy adabiyot janrlarini sinkretik tarzda uzviylashtirib, rasmiy hisobotlar va o‘tmishga doir umumiy

---

<sup>5</sup> Carol Dell’Amico. Anne Enright’s “The Gathering”: Trauma, Testimony, Memory. *New Hibernia Review / Iris Éireannach Nua, FÓMHAR / AUTUMN 2010*, Vol. 14, No. 3 (FÓMHAR / AUTUMN 2010), pp. 59-74. // Ewins, Kristin. History is Only Biological: History, Body and national Identity in ‘The Gathering’ and ‘Switzerland’. Anne Enright. – Dublin: Irish Academic Press, 2011. –P.123 //Anne Fogarty. Someone whose kindness did not matter: Femininity and Ageing in Anne Enright’s *The Green Road*. *Nordic Irish Studies, SPECIAL ISSUE: Women and Ageing in Irish Writing, Drama and Film*, –Dalarna University Centre for Irish Studies, Vol. 17, No. 1, 2018. – P.131-144 //Gardam, C. Sarah. Default[ing] to the oldest Scar: A Psychoanalytic Investigation of Subjectivity in Anne Enright’s *The Gathering*. –*Études irlandaises* 34.1, 2009. – P. 99-112.// Kelly Jayne Steenholdt McGovern. We have come of age: The growing body in the twentieth-century Irish novel. – Dis., PhD., United States Code, – 2012. –P. 33 //D’Hoker, Elke. Reclaiming Feminine Identities: Anne Enright’s *The Wig My Father Wore*. *Irish Literature: Feminist Perspectives*. Eds. Patricia Coughlan and Tina O’Toole. – Dublin: Carysfort, 2008. – P. 185-201//Sarah M. Nestor. Destabilizing Tradition: Gender, Sexuality, and Postnational Identity in four novels by Irish women, 1960-2000 “The Wrong Girl”: Identity, Exile and Family in Anne Enright’s *What Are You Like?* Dissert., PhD. –Milwaukee, Wisconsin, 2012. – P.151-188.//Margarita Estévez-Saá. A Map of Things Known and Lost in Anne Enright’s *The Green Road*. – *Estudios Irlandeses*. – ISSN 1699, No. 11, 2016. – P. 45-55//Ingman, Heather. // Meaney, Gerardine. *Waking the Dead: Antigone, Ismene and Anne Enright’s Narrators in Mourning*. Anne Enright. Edited by Claire Bracken and Susan Cahill. – Dublin: Irish Academic Press, 2011. – P. 145-164.//Moloney, Caitriona. Anne Enright. *Conversations with Contemporary Irish Women Writers*. –Syracuse University Press, 2003. –DLB 267. – P.88-93.// Elizabeth A Fuller. ‘New Femininities’ Fiction. *Flirting with the Boundary: The Ironic Voices of Enright, Heller, and Kennedy*. Anne Enright’s *Ironic Voice: Hovering on the Border Between Body and Mind*. – English Studies University of Stirling, 2011. – P.92-106.//Mariëlle Smith. Subjectivity as Encounter: Feminine Ethics in the Work of Bracha Lichtenberg-Ettinger and Anne Enright. – Published by: Wiley on behalf of Hypatia, Inc. SUMMER Vol. 28, No. 3, 2013. – P.633-645.//Karen Anne McCarthy. An art which honest enough to display and et go on: The limitations and potential of narrative in three contemporary Irish novels. *Trauma That Resists Representation in Anne Enright’s The Gathering*. – Dissert., Jan.2012. – P.51-89.//Margaret Mills Harper, Claire Bracken and Susan Cahill, eds. Anne Enright. – Dublin: Irish Academic Press, 2011.– P.440. DOI: 10.3366/iur.2013.009// //Ana-Karina Schneider. *Understanding Anne Enright*. – Cambridge Scholars Publishing, 2020. – P.135.

<sup>6</sup> Schwall, Hedwig. “Relationships with ‘the Real’ in the Work of Anne Enright”. Anne Enright. Eds. Claire Bracken and Susan Cahill. –Dublin: Irish Academic Press, 2011.–P.206.

xotiralarni mozaika usuli orqali syujet voqealariga singdiradi” deydi<sup>7</sup>. Enraytning o‘ziga xos uslubi tanqidchilarga Irlandiya ijtimoiy, siyosiy, madaniy hayoti va zamonaviy irland adabiyotida muallifning adabiy maqomini aniqlash va tushunishning yangicha usullarini namoyon qiladi.

Enrayt tomonidan yaratilgan noan’anaviy ona obrazi o‘z oilasi rahnamosi, himoyachisi bo‘lgan an’anaviy mushfiq ona timsolidan hayratlanarli darajada farq qiladi. An’anaviy ona obrazini o‘zgacha talqin qilish va inkor etish tendensiyasi ingliz, amerika va g‘arb adabiyotlarida XX asrning oxirlarida kuzatilib, postmodernizm tushunchalariga xosligi tadqiqotlar natijasida aniqlandi, ammo irland adabiyotida ushbu hodisa unchalik chuqur izohlanmagan. Adiba biz uchun odatdagidan ko‘ra farq qiladigan va jamiyat tomonidan qoralanishga sabab bo‘ladigan, yangi “boshqacha” onaning surati va siyratini yaratdi. Tadqiqotchi R.Parker boshqa adiblar gavdalantirgan an’anaviy ona qiyofasi Muqaddas Maryamning tasviri bilan bog‘liqligini ta’kidlaydi<sup>8</sup>. M.Barros-Del Rio “*The Green Road*” romanidagi oilaning barbod bo‘lishi, uning zaif nuqtalarini ko‘rib chiqadi. Buni zamonaviy globallashuv va “Irlandiyadagi Kelt yo‘lbarsi (1990-2000-yillarda Irlandiya iqtisodining rivojlangan pallasi atamasi) davri qurboni”<sup>9</sup> ekanligi bilan bog‘laydi. “*The Green Road*” romanini sharhlagan olim Entoni Kumminsning fikricha, bu asar mahorat bilan yozilgan, ammo tasvirlangan voqelikni ahamiyatsiz deb hisoblash mumkin, lekin hikoyaning tugatilmaganligi, bu birlasha olmagan oilaning qayg‘usiga yaqinlashishning dadil va yorqin usulidir<sup>10</sup>. Biroq hikoyaning “tugatilmaganligi” deganda, E.Kummins voqealarning diskretik (uzluksiz)ligi, parchalanishi va yakunlanmaganligini nazarda tutadi.

X.Shvallning ta’kidlashicha: “Enrayt o‘z ijodida juda faol, sarguzashtlarga o‘ch ayol qahramonlari bilan g‘amgin, nofaol va mukammal irland ona qiyofasini buzganligi sabab, irland katolik cherkovi tartibotlarini buzib tashladi. Enrayt o‘zining kitoblari haqida shunday ta’rif beradi: “Ular poklik g‘oyalarini targ‘ib qilishadi, chunki irland ayollarining pokligi milliy davlatning afsonaviy asoslaridan biridir”<sup>11</sup>. Syuzan Kaxill ta’kidlaganidek, “Enraytning asarlari irlandlarning turmush tarzi haqidagi haqiqatlarni ochib beradi va “irlandlik”ning o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etadi”<sup>12</sup>. Yozuvchi asarlarida zamonaviy irland adabiyotida ayollik qanday tasvirlanishi haqida fikrlarini namoyish etadi va Irland ayolining mukammal, bokira, sof idealini tarkibiy qismlarga ajratishni maqsad qiladi. A.Mulxallning ta’kidlashicha, “real hayotdagi haqiqiy ona o‘rnida, Enrayt irland adabiyotida “ramziy ona timsoli”ni gavdalantiradi yoki ko‘rinmaslini ifodalaydi”.

<sup>7</sup> Moloney, Caitriona. Re-Imagining Women’s History in the Fiction of Éilís Ní Dhuibhne, Anne Enright, and Kate O’Riordan. – Postcolonial Text, Vol 3, No 3, 2007. – P.1-15.

<sup>8</sup> Parker, Rozsika. Torn in Two: The Experience of Maternal Ambivalence. –London: Virago Press, 2005. –p.35

<sup>9</sup> Barros-Del Río, Maria Amor. Fragmentation and Vulnerability in Anne Enright's *The Green Road* (2015): Collateral Casualties of the Celtic Tiger in Ireland. –International Journal of English Studies vol. 18, no. 1, 2018. –p. 35

<sup>10</sup> Cummins, Anthony. “The Green Road by Anne Enright”, Review: ‘virtuouic’. –The Telegraph, 29 July 2015.

<sup>11</sup> Schwall, Hedwig. 2011, P.205-211

<sup>12</sup> Cahill, Susan. Irish Literature in the Celtic Tiger Years 1990 to 2008: Gender, Bodies, Memory. –London: Continuum International publishing Group, 2011. –P.11.

Enrayt o'z romanlarida onalik va ona-farzand munosabatlariga jiddiy e'tibor qaratadi. Ona-farzand munosabatlari odamlar hayotidagi birinchi va eng asosiy shakllantiruvchi omil ekani Melani Kleyn, Anna Freyd, Xanna Segal, Donald Vinnicot, Vilfred Bion kabi bolalar ruhiyatini o'rgangan psixoanalitiklar tomonidan asosli ifodalangan<sup>13</sup>.

Bobning **“Yozuvchi badiiy olamini shakllantirgan omillar”** faslida Enn Enraytning taniqli yozuvchi bo'lib shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan ichki va tashqi omillar, ya'ni oilasi, onalik maqomi, yozuvchilar tajribasi va global muammolar o'rganildi. Mazkur omillar Enraytga ayol qahramonlarining ma'naviy-axloqiy dunyosi, keskin ruhiy kechinmalarini g'oyatda san'atkorona aks ettirishiga imkon yaratdi. Adiba ona qalbining shiddatli to'lqinlari vositasida zamonasining muhim masalalarini ko'tarib chiqdi hamda ayol atalmish nozik xilqatning go'zallik, baxt, mehr-muhabbat haqidagi orzu-armonlarini va bu orzularga intilishlarini o'ziga xos uslubda ifodalashga erishdi.

Enn Enraytning oilasi uning ijod olamiga kirishiga sabab bo'ladi. U oiladagi beshta farzandning eng kichigi edi. U yetti yoshida mahalliy kutubxona bolalar bo'limidagi barcha adabiy kitoblarni to'liq, o'n to'rt yoshida esa Jeyms Joysning *“Ulysses”* asarini o'qib chiqadi. Enrayt badiiy olamini shakllantirishda hissa qo'shgan va o'zi havas qiladigan, minnatdor bo'lgan va ko'p narsalarni o'rgangan yozuvchilar haqida bir necha bor gapirgan. U Irland nosiri Jeyms Joys oldidagi qarzini va undan ko'p adabiy narsalarni “o'g'irlagan”ini ochiqchasiga tan oladi. J.Joysning sevimli bo'lgan “dog'li” yoki “burchak” so'zlari, ko'pincha Enraytning asarlarida ishlatiladi va dublinliklarning ta'siri nafaqat uning hikoyalarida, balki *“The Gathering”* romanida ham yaqqol seziladi.

Ammo uning didi irland yozuvchilari bilan chegaralanib qolmadi, u Flanneri O'Konnor, Toni Morrison, Kormak Makkarti, Gabriel Garsiya Markes, Reyner Mariya Rilk kabi buyuk hikoyachilardan ham ilxom olib ijod qildi.

**“Enn Enrayt asarlarida ayol va ona ruhiyatining psixoanalitik tahlili”** bobning uchinchi faslida yoritilgan. Enn Enrayt ko'pincha o'z asarlarida onalik mavzusiga murojaat qilib, onani turli qirralarda gavdalantiradi. Adiba romanlaridagi ona asardagi qahramonlarning shaxsiyati qayta tiklanadigan sub'ekt sifatida tasavvur qilinadi. Yozuvchi *“What Are You Like?”* romanida ona va farzand munosabatlarining nafaqat moddiy, balki ruhan bog'liqligini o'ziga xos uslubda aks ettirgan.

Enraytning *“Making Babies”* asarida e'tirof etilgan onalik va jamiyat bilan muloqot o'rtasida bo'shliq mavjud. *What Are You Like?* va *The Gathering* romanlarining ikkalasida ham ona mavjudmasdek: u har doim uzoqda, ko'rinmaydigan, yetishib bo'lmaydigan; qizlarda uyg'otadigan tuyg'ulari hech qachon sevgi emas, balki har doim dushmanlik, aybdorlik ruhiga yo'g'rilgan. Shunga qaramay, romanlar o'rtasida onaning mavjud emaslik holati bo'yicha ba'zi farqlar bor va onani qizidan ajratib turadigan masofa farqlanadi: *“What Are You*

---

<sup>13</sup>Owen, A. (2001, May). History of Psychology Archives. – Retrieved November, – 2011 from <http://www.muskingum.edu/~psych/psycweb/history/afreud.htm> Archived 2012-04-07 at the Wayback Machine. Sarah C. Gardam. Default[ing] to the Oldest Scar: A Psychoanalytic Investigation of Subjectivity in Anne Enright's *The Gathering*. *Études irlandaises*, 34.1, 2009. – P. 99-112.

*Like?*” romanida ona vafot etgan, holbuki *“The Gathering”*da tirik bo‘lsa-da, asosiy e’tibor qiziga qaratilgani uchun ikkinchi darajaga tushiriladi. 2000 yilda yozilgan *“What Are You Like?”* romanida ona qizi doim ro‘para bo‘lishi bilan his qilinadigan qo‘rquv obyekti bo‘lib ifodalanadi; 2007-yildagi *“The Gathering”* romanida onaga hamdardlik bilan munosabatda bo‘linadi, uni tushunishga va uning befarqligini oqlashga urinish paydo bo‘ladi.

Enraytning *“The Green Road”* asarida keksa yoshdagi ayollar ruhiyati, kasallikdan aziyat chekkan ona xususiyatlariga jiddiy e’tibor qaratiladi. Yozuvchi Rozalinning taqdiri yoki u taqdim etgan muammolarni aks ettirib, keksa ayolni umidsiz, shikoyat qilmaydigan, ojiz holatda tasvirlaydi va bu bilan zamonaviy irland keksa ayolining ruhiy holatini dalillaydi. Yozuvchi *“The Green Road”* romanida keksalikni yaxlitlik yoki zaiflik tasvirlari orqali emas, balki bo‘shliqlar va tugallanmagan istioralar orqali tasvirlaydi. Rozalin ham olti yosh, yetmish olti yosh deya ta’riflangan o‘zining yo‘qolgan yoshligining vizual qiyofasini saqlab qolishga intiladi: *“Uzoqdan orqa tomondan, har qanday yoshda bo‘lishingiz mumkin”*<sup>14</sup>. Shu bilan birga, u o‘zining keksa holatini melodramatik tarzda aks ettiradi va uyining qarovsizligini o‘zining qarilik, qashshoqlik va charchoq hissi kuchayib borayotganining tashqi ko‘rinishi sifatida ko‘radi: *“U yillar davomida tashlab ketgan yopiq xonalari; afsuski; bechora kampirni o‘z uyidan burchakka quvdi”*<sup>15</sup>. Rozalinning keyingi o‘y-xayollari prospektiv xarakter kasb etadi, ya’ni bolalari uni tashlab ketganidan va yolg‘izligidan iztirobga tushadi, shuningdek, vaqtning shiddati va keksaliklikning nochor holatidan qayg‘uradi: *“Har kuni u o‘zining kichkina Citroen mashinasini haydab ketar va piyoda yurardi. U yo‘ldagilar ichida eng keksasi edi. Ammo uning oyoqlari Arklega (ot turi) o‘xshardi, bu bilan eri uning zotli ekanligini nazarda tutgan edi. Rozalin yoshligidagi bu jihatni hech qachon yo‘qotmagan”*<sup>16</sup>. Rosalin keksa zamonaviy, jismonan kuchli, irodali, buyuk va murakkab ona, muammolarini hal qilishda oilasini birlashtira olgan ayol kuchining bemisl timsoli. Rosalin xarakteri onalikning qurbonliklari, bosimlari va hissiy kurashlarini, shuningdek, o‘z tanlovining farzandlariga ta’sirini ochib beradi.

Rozalin matnda qattiq nazorat qiluvchi ona va farzandlari hayotining asosiy tayanchi sifatida o‘z taqdiridan chetlashtiriladi, kamchiliklari va nuqsonlari bilan murosaga kelish va dunyoni tushunish uchun davom etayotgan kurashida holdan toygan ayol sifatida o‘zini qayta kashf etadi. Romanning yakuniy so‘zlarini ham Rozalin aytadi, ammo bu safar uning noroziligini bartaraf etish va tashvishlaridan voz kechishga ishora qiladi: *“Men juda kam e’tibor berdim”, dedi u. “Menimcha, muammo mana shunda. Men hammasiga e’tiborliroq bo‘lishim kerak edi”*<sup>17</sup>.

<sup>14</sup> ‘From a distance, if you keep the hump out of your back, you might be any age at all’. W.W. Norton & Company, Enright, Anne. *The Green Road*. – 2015. p.151.

<sup>15</sup> ‘The shut-up rooms that she had abandoned, over the years; the pity of it; an old woman chased into a corner by her own house. The pity of it - an old woman’. Enright, Anne. – 2015. p. 165.

<sup>16</sup> ‘Every day she drove out in her little Citroën and she walked. She was the old woman of the roads. But she had legs like Arkle, her husband used to say, by which he meant that she was a thoroughbred. Rosaleen recognised, in her reflection, the good bones of her youth. She never lost it’. Enright, Anne. – 2015. p.151.

<sup>17</sup> ‘I have paid too little attention,’ she said. ‘I think that’s the problem. I should have paid more attention to things’. Enright, A. – 2015. p.310.

Onalarning e'tiborli bo'lishi bilish nazariyasi va psixoanalizda asosiy tushuncha ekanligini adiba ushbu jumlar orqali ifodalaydi.

Yozuvchining bugungi kundagi barcha asarlaridan ko'ra ko'proq *"The Green Road"* romani kekxa ayolning so'nggi kunlari tasviriga bag'ishlangan bo'lib, nafaqat onaning roli markazdaligi uchun, balki G'arb madaniyati va Irlandiya jamiyatidagi ramziy onalikning barcha muammoli tomonlarini birlashtirgani uchun ham qimmatlidir. Enraytning tanlangan asarlarida onalikning go'zal tabiati, mehr-muhabbati, biografik va psixologik tahlili ushbu faslning mohiyatini tashkil qiladi.

**"Enn Enrayt romanlarining badiiy xususiyatlari"** dissertatsiyaning ikkinchi bobida ochib berilgan. Bu o'rinda asosiy e'tibor *"The Gathering"* romanida onalik maqomi, ayol va jamiyat, *"The Green Road"* asarida onalar ruhiyati talqini, *"The Pleasure of Eliza Lynch"* asarida irqiy va etnik o'ziga xoslik kabi masalalarni yoritishga qaratilgan.

Enraytning *"The Gathering"* romanida Irland ayolininigi iztirobli kechinmalari, ruhiy tanazzuli ayol-oila-jamiyat triadasida tasvirlangan. Bosh qahramon Veronika akasi Liamning o'limidan so'ng o'zligini anglashga intilishi natijasida oila shajarasi – buvisi Adaning o'tmishi, o'zining bolaligi va onasining taqdirini o'rgandi. Asarda onalik maqomi turli darajalarda – irland jamiyatidagi ayollarga nisbatan zulm va zo'ravonlikning psixologik oqibatlari natijasida ularning ruhiy tangligi, ichki dunyosidagi g'alayonlar, ayol vujudining moddiy-ma'naviy jarohatlari, onaning patriarxal o'tmishda shaxsiyatining toptalishi sifatida aks ettirilgan. *"Ada irland onaning timsoli, uning ruhi Irlandiyaning qo'pol manzarasi va notinch tarixi bilan o'ralgan edi. U ajdodlarining og'irligini, ularning hikoyalari va qayg'ularini qon tomiriga singdirgan. Adaning farzandlariga bo'lgan sevgisi shiddatli va cheksiz, bu Irland onaligini belgilagan chuqur ildiz otgan sadoqatning aksi edi"*<sup>18</sup>. Bundan tashqari asarda onaning azoblangan, jafokash, qurbon bo'lgan, talabchan, kuchli tasvirlarini kuzatamiz. *"Onam oilamizda o'zgacha o'rin tutgan ayol edi. U atrofini o'rab turgan qiyinchiliklarni xotirjamlik bilan ko'taradigan quvvat ustuni edi. Uning sabr-toqati, parokanda bo'lgan oilamizni cheksiz muhabbati bilan ushlab turgan kuch edi"*<sup>19</sup>. Enn Enraytning romanlaridagi ona siymolarining ta'riflariga ko'ra, ularning mavjudligi, murakkabliklari va farzandlari hayotiga ta'sirini ta'kidlaydi. Enraytning ta'sirchan tili va jonli obrazlari bu personajlarning kuchli tomonlari, kurashlari va onalik rollarining nozik jihatlarini aks ettirishga yordam beradi.

Enn Enrayt ushbu romanda ayollar jismi bilan bog'liq muammolarni ko'taradi. Ayolning nafaol, sadoqatli va dindor ona sifatida ideallashtirish ayollarning siyosiy va ijtimoiy o'ziga xosligini keskin cheklaydi, chunki "ayol" va "ona"ning o'zaro bog'lanishi ayollikni onalik bilan uyg'unlashtiradi. Bundan tashqari, an'anaviy onalar o'z jismini farzandlarini dunyoga keltirish uchun

---

<sup>18</sup> 'Ada was the epitome of an Irish mother, her spirit entwined with the rugged landscape and turbulent history of Ireland. She carried the weight of her ancestors, their stories and sorrows etched into her bones. Ada's love for her children was fierce and unyielding, a reflection of the deep-rooted devotion that defined Irish motherhood'. Enright, Anne. *'The Gathering'*. – 2007. p. 165.

<sup>19</sup> My mother was a woman who had a different role in our family. She was a pillar of strength, quietly enduring the chaos that surrounded her. Her patience was a force to be reckoned with, as she held our fragmented family together with her unwavering love'. Enright, Anne. – 2007. p. 147.

bag'ishlagan va istagining har qanday potensialini inkor etadigan shaxsiyatdir. Yagona o'zlikni qabul qilishga majbur bo'lgan onalik ayollarning hayotiga xavf soladigan va ularga onalik muhrini tamg'alagan siyosiy vositaga aylanadi<sup>20</sup>. Asardagi Missis Xegarti ayol tanasining o'tmish mafkuraviy ta'sirining yorqin namunasi bo'lib, ayollarni individualligidan mahrum qiladigan va ularni yo'q qilish bilan tahdid qiladigan har tomonlama o'ziga xoslikka ega obraz. Enrayt asarda onaning jismi faqat farzand ko'rish, buning natijasida ularning noto'g'ri xayot kechirishlariga sababchi bo'lib qolishlarini aks ettirgan: *“Onamning o'n ikkita farzandi va yettita bola tushishi bo'lgan.....to'xtovsiz xomiladorligi har bir farzandning noto'g'ri yo'l tutishiga sabab bo'lgan”*<sup>21</sup>.

Enraytning *“The Gathering”* romani erkak va ayol munosabatlarining haddan tashqari ochiq va axloqsiz tasvirlari uchun tanqid qilingan, chunki yozuvchi bu asarida irland onasining maqomini ochiq-oydin yoritgan. To'g'ri yoki noto'g'ri bo'lsin, bu tanqidlarning barchasi gender dinamikasining o'ziga xos tushunchasiga asoslangan.

Bobning ikkinchi faslida yozuvchining *“The Green Road”* romanidagi onalar ruhiyatining turli qirralari ochib berilgan. Jumladan, romanda onalar va ularning farzandlariga g'amxo'rliqi, ona ruhiyati, oila atalmish muqaddas makonda ro'y bergan voqealar tasvirlangan. Enrayt xususiylikdan umumiylikka o'tadi: Madiganlar hikoyasi Irlandiyaning yaqin tarixini yoritishga, shuningdek, onalik, din, qahramonlar antipatiya va simpatiyasi, keksalikning ojiz va notavon ruhiy olami, kasallik, materializm, migratsiya va boshqa muammolarga yechim izlashga xizmat qiladi. Enraytning ushbu romani, shubhasiz, haqiqatga sodiqlik mezoni bo'yicha yozilgan asar bo'lib, muallifning roman janriga qo'shgan eng ajoyib hissasi sifatida talqin qilinadi. Uy – inson hayot yo'lidagi o'ziga xos boshlang'ich nuqta sifatida insonning tug'ilgan, o'zi va uning oilasi yashaydigan joyni anglatadi. Ammo uning muayyan chegarasi bo'lmasa, unda sog'lom muhit shakllanmasa, o'ziga xoslik ham sog'lom ruhiyat ham bo'lmaydi. Enraytning *“The Green Road”* romani qahramonlari aynan xuddi shunday joy mukammal makon va o'ziga xoslikni izlaydi. *“The Green Road”* romanidagi voqealar rivoji mobaynida ichki va tashqi makon uzviyligiga, ya'ni tashlandiq holga kelgan Ardevindagi Madiganlar uyi arvohtar bilan, tirik murdalar – Rozalin, Konstans va Xanna bilan to'ldirilganligiga guvoh bo'lish mumkin. Ushbu tahlil orqali ularning barchasi ona, har biri g'amxo'rlikning burchlari va usullari bilan ta'minlanganligi, har biri g'amxo'rlikning o'ziga xos tajribasini namoyish etganligini kuzatdik. Enrayt Ardevindagi uydan qahramon ruhiy olamini tahlil qilish vositasi sifatida foydalanadi. Uning maydoni, xaritasi va xotirasi jismoniy va ruhiy jihatdan o'z aholisiga muhrlanganligini aks ettiradi. Romanda ona va farzandlar munosabatlaridagi onalar ruhiyati ham juda yorqin tasvirlangan. *‘Rosalin hurmat va e'zozga sazovor bo'lgan qudratli matriarx edi. Uning qat'iyati va farzandlariga bo'lgan cheksiz sevgisi uni oldinga siljitdi, to'siqlarni yengib o'tdi va ularning*

---

<sup>20</sup> Weekes, Ann Owens. Figuring the Mother in Contemporary Irish Fiction. Contemporary Irish Fiction: Themes, Tropes, Theories. Eds. Liam Harte and Michael Parker. –New York: St. Martin's, – 2000. – p.102.

<sup>21</sup> 'My mother had twelve children and-as she told me one hard day-seven miscarriages....endlessly vague pregnancies, the way each and every one of her grandchildren went vaguely wrong'. Enright, Anne. – 2007. p. 38.

hayot yo‘nalishini shakllantirdi. Rosalinning borligi u kirgan har bir xonani to‘ldirdi, uning kuchi ichkaridan tarqaldi<sup>22</sup>. Rozalin o‘zini farzandlari, otasi va eri tomonidan tashlab ketilgandek his qiladi va ular ketganidan keyin ma‘naviy hamda jismoniy bo‘sh qolgan uy bilan kurashishga majbur bo‘ladi. Rozalin nomukammal ona bo‘lsa-da, u o‘z uyiga chuqur ildiz otgan, kuchli va jasur edi. Ammo uni sovuq va qorong‘u yashil yo‘lda yo‘qotish farzandlari uchun qo‘rqinchli va chidab bo‘lmas edi: *Ularning tashvishi nihoyatda og‘ir edi. Go‘dakdek ko‘z yoshlar to‘kilar, xavotirlanishar [...] onani kerakligini his qilishlari va alamli sog‘inchlari sabab [...] farzandlarining har biri uni turlicha Oyi, Oyijon, Rozalin deb chaqirishardi*<sup>23</sup>. Rozalin tom ma‘noda bo‘shliqqa tushganda, oila a‘zolari bir-birlariga qalban yaqinlik his qilishadi. Ona nuqtai nazaridan aytilgan quyidagi parcha oilaning birlashganini tasvirlaydi: *“Biz o‘sha soatlarda qorong‘u tog‘ yonbag‘rida yagona kuch – Oila bo‘lgan edik*”<sup>24</sup>. Demak, Enrayt ushbu asari orqali ona-bola munosabatlaridagi muvozanatning qayta ko‘rib chiqilishini ifodalaydi.

Ikkinchi bobning uchinchi fasli **“The Pleasure of Eliza Lynch asarida irqiy va etnik o‘ziga xoslik”** deb nomlanib, ushbu faslda yozuvchining 2002 yilda yozilgan *“The Pleasure of Eliza Lynch”* romani tasvirlangan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy hayot va bosh qahramon taqdiridagi keskin o‘zgarishlar parallelizmi tahlilga tortiladi. Enrayt ona obrazini gavdalantirishda prototiplardan ham foydalanadi va roman qahramoni Eliza Linchning sarguzashtlariga to‘la xayotini ushbu asarida badiiylashtiradi. *“The Pleasure of Eliza Lynch”* asari Enraytning “Kelt yo‘lbarisi” davriga bag‘ishlangan romanlaridan biri bo‘lib, adiba ayollarning o‘tmishi borasidagi haqiqatni badiiyatga ko‘chirish uchun tarixiy manbalarni o‘rganadi, faktlar, voqealar, tarixiy shaxslar haqidagi ma‘lumotlarga tayanadi. Yozuvchi badiiy tasavvurini ishga solgan holda ayollar o‘tmish hayotini qayta yaratishda badiiy to‘qimadan unumli foydalanadi. Roman zamonaviy kitobxonni tarixiy, ijtimoiy va siyosiy o‘z o‘zini anglash sari sayohatga yo‘naltiradigan tarzda tasvirlangan.

